

**Hoshimova Ruhshona Isroil qizi**  
**Farg‘ona davlat universiteti filologiya fakulteti 2-kurs talabasi**

---

## **ALISHER NAVOIYNING „XAMSA“ASARIDA MIFIK OBRAZLAR TALQINI**

**Annotatsiya:** Mif (yunoncha mythos – rivoyat, hikoya, masal) xalq o‘g‘zaki ijodining eng qadimgi davrlarida paydo bo‘lib va xalqning olam va uning qanday yaratilishi haqidagi o‘sha paytdagi tasavvurlarini aks ettiradi. Mifning tag zamirida ishonch yotadi. Mif yaratuvchi ozi aytgan rivoyatlarga o‘quvchilarni ishontiradi va o‘zi ham ishonadi. Ba'zida esa badiiy adabiyotda ham miflarga murojaat qilinadi. Miflar odamlarning tafakkur shakli bo‘lib ular yordamida atrof-muhitni, odamlarni, olamni va tabiat hodisalarini bilishga urinishgan. Odatda insonlar qayerda yashashlariga qarab miflar yaratishgan. Masalan, suv bo‘yida yashagan insonlar baliq, suv va boshqa jonzodlar haqida miflar yaratishgan. Ushbu asarda qo‘langan miflardagi obrazlarda ham yaxshilik va yovuzlik ziddiyatga uchragan. Ushbu maqolada Alisher Navoiyning „Xamsa“ asaridagi mifik obrazlar yoritilib o‘tiladi.

**Annotation:** Myth (from Greek mythos - narrative, story, fable) appeared in the earliest periods of folklore and reflects people's ideas about the world and how it was created at that time. At the heart of the myth is belief. The myth-maker convinces the readers of the stories he tells, and he himself believes them. Sometimes, fiction also refers to myths. Myths are a form of thinking of people, with the help of which they try to understand the environment, people, the world and natural phenomena. Usually, people create myths depending on where they live. For example, people who lived by the water created myths about fish, water and other creatures. Good and evil conflicted in the mythic images used in this work. In this article, the mythical characters in Alisher Navoi's work "Khamsa" will be highlighted

**Аннотация:** Миф (от греч. myfos — повествование, рассказ, басня) возник в самые ранние периоды фольклора и отражает представления людей о мире и о том, как он создавался в то время. В основе мифа лежит вера. Мифотворец убеждает читателей в рассказанных им историях и сам им верит. Иногда художественная литература также относится к мифам. Мифы – это форма мышления людей, с помощью которой они пытаются понять окружающую среду, людей, мир и явления природы. Обычно люди создают мифы в зависимости от того, где они живут. Например, люди, жившие у воды, создавали мифы о рыбах, воде и других существах. Добро и зло противоречили в мифических образах, использованных в этом произведении. В данной статье освещаются мифические образы в произведении Алишера Навои «Хамса».

**Kalit so‘zlar:** Mif, afsona, adabiyot, „Xamsa“, „Farhod va Shirin“, „Farhodnoma“, dev, ajdar, ya'juj-majuj, „hikmat ko‘zgusi“, „Saddi Iskandariy“.

---

### **Kirish.**

Alisher Navoiyning ijodida katta yutuqlarga erishgan „Xamsa“ asari an’anaga muvofiq besh dostonidan iborat bo‘lib, ularning hammasi ozining benazirligi bilan ajralib turadi. „Xamsa“ asaridagi dostonlar

1. „Hayrat ul-abror“
2. „Farhod va Shirin“

3. „Layli va Majnun“

4. „Sab’ ai sayyor“

5. „Saddi Iskandariy“

„Farhod va Shirin“ dostoni „Xamsa“ asarining ikkinchi dostoni bo‘lib, u 1484-yilda yozib tugatilgan. Shuningdek, doston 54 bob, 5782 baytdan iborat. Shundan muqaddima 11 bobni o‘z ichiga oladi. Avvalgi ikkinchi darajali doston sifatida talqin qilingan Farhodni bosh qahramon qilib oladi. Farhodni bosh qahramon qilib olinishi adabiyotda ilk bor 15-asrda Ozarbayjonlik mashhur yozuvchi Orif Ardabiyning „Farhodnoma“ nomli -fors-tojik tilida yozilgan dostoni bilan boshlanadi.

Dostonning mifik obrazlar syujetlariga o‘tadigan bo‘lsak:

Dostonda Farhodning Yunonistonga safari voqealari tasvirida ramziylik yanada kuchayadi. Shoir Yunoniston safari vositasida Farhodning sulukdagi yo‘lini, Yunon donishmandlari yasagan, Iskandardan qolgan "hikmat ko'zgusi"ning tilsimini ochishni faqat Suqrot o'rgatishi mumkinligini ishoralar bilan bayon etadi. Suqrot bilan uchrashishga ahd qilib yo'lga chiqqan. Farhod dastlab Suhaylo bilan uchrashadi. Suhaylo Suqrot da- rajasida emas, u ko'zguning sehrini ochishga qurbsiz, lekin Suqrotga yetishish yo'li, dushmanlarini yengish sirlaridan xabardor. N. Komilovning "Tasavvuf" nomli kitobida yozilishicha, Suhaylo Farhodning tariqat yo'lidagi birinchi piridir. U Farhod yengib o'tishi kerak bo'lgan to'siqlar: ajdarho va devdan xabar beradi. Tasavvufda ajdarho nafs timsoli, dev saltanat timsoli hisoblanadi. Suhaylo Farhodga ajdarhoni yengish uchun samandarning yog'ini beradi. Samandar olov ichida yashaydigan jonivor. U ishq ramzi. Farhod badaniga samandar yog'ini surganda, ajdarhoning o'ti unga kor qilmaydi, ya'ni ishq otashi nafs o'tini so'ndiradi. Shuningdek, Farhodga keyingi manzillarda uchraydigan sher va temir paykarning ham ramziy ma'nosi bor. Sher g'azab timsoli, ilohiy ishq yo'liga kirayotgan solik- da esa g'azab bo'lmasligi kerak. Temir paykar ro'yo, yolg'on dunyo ramzi. Solik dunyo mo'jizalariga chalg'imasligi, ularga ko'ngil qo'yimasligi kerak. Farhod temir paykarni ham yengib, nihoyat Suqrot dargohiga kirib boradi.

„Saddi Iskandariy“ dostoni dunyodagi buyuk siymolardan biri, uch sohibqironning eng mashhuri jahongir Iskandarga bag'ishlangan bo'lib, "Xamsa"ning yakunlovchi dostonidir. Sharqda u Iskandar Zulqarnayn ("ikki shoxli" yoki "kun chiqish va kun botish huktadori") somi bilan mashhur. Dastlab Iskandar mavzusi Firdavsiyning "Shohnoma" dostonida qalamga olingan. Keyinroq Nizomiy Ganjaviy u haqda maxsus "Iskandarnoma" degan doston yozadi. Xusrav Dehlaviy bu dostonga javob tarzida "Oyinayi Iskandariy“ asarini yozgan bo'lsa, Abdurahmon Jomiy o'z dostonini "Xiradnomayi Iskandariy" deb ataydi. Alisher Navoiy esa bu mavzuni turkiy tilda qayta ishlab, o'z asariga "Saddi Iskandariy" ("Iskandar devori") deb nom beradi.

"Saddi Iskandariy" Navoiy "Xamsa"sidagi eng yirik doston bo'lib, 89 bob va 7215 baytdan tashkil topgan. Dostonning muqaddimasi 14 bobni o'z ichiga oladi.

Mifik syujetiga o‘tadigan bo‘lsak:

Iskandar Mag'rib diyori fath etib, o'z vatani - Rum tomonga ot surganda, yo'lda Qirvon diyori ahli unga Ya'juj va Ma'juj zulmidan panoh istah murojaat qiladilar. Iskandar bu yerda olti oy davomida ikki tog' orasida mashhur Saddi Iskandariy devorini bunyod etib, Ya'juj va Ma'juj balosini daf qiladi:

Bo'lub olame buyla san'atnamoy,

Kecha-kunduz ish qildilar olti oyi.

Ki necha ming ustod u san'atguri,

Tamom ettilar Saddi Iskandariy.

Asosiy qism.

Qadimgi mifologiyaning asosini yaxshilik va yovuzlik o'rtasidagi kurash tashkil etadi. Yovuzlik miflari qahramonlari sharq xalqlarda dev,ajdar,jin, shuningdek, ya'juj-ma'juj kabi yovuz mifologik obrazlarni ko'rishimiz mumkin. Ayan shularni dev,ajdar,ya'juj-majuj kabi yovuz mifologik obrazlarni ko'rish mumkin. Bular yovuzlik,qabohat,nafs,razolat insonning yomon xislatlarini aks ettiradi.Shoir bu obrazlardan aniq g'oyaviy-estetik maqsad yo'lida, zamonasining voqea va muammolari haqida fikr-mulohaza yuritganda foydalanadi.

Alisher Navoiy asarlarida ko'p uchraydigan mifologik obrazlardan biri ajdardir.Afsonalarida tasvirlangan ajdar o'z mohiyatiga ko'ra, sinkretik obrazdir. Bu personaj kamida to'qqiz xil ko'rinishni o'zida birlashtiradi. Uning kallasi tuyaniki, bo'yni ilonniki, tirnog'i burgutniki, yelkasidagi tig'simon bo'rtmalari karp baliqniki, oyoqlari yo'lbarsniki, quloqlari sigirniki, shoxlari kiyikniki, ko'zlari shaytonniki, qorni chig'anoqnikiga o'xshash holda tasvirlangan. Ajdarho g'ayritabiiy, ya'ni turli xil jonzotlar haqidagi xalq qarashlarini o'zida mujassamlashtirgan mifologik jonzot – ezgulik timsoli sifatida tasvirlangan. Bu xayoliy-mifologik jonzotning har bir a'zosi alohida vazifa bajaradi. Ammo uning tangalar bilan qoplangan, uzun tanasi ko'proq ilonni eslatadi. Umuman olganda, Sharq xalqlarining tasavvuricha, ajdar bilan ilon obrazi mushtarak sifatlarga ega. Aytishlaricha, ilonga qirq yil odam nazari tushmasa, u ajdarga aylanarmish.

V.Y.Proppning yozishicha, shomonlarning ajdar qiyofasiga kirib, aniqrog'i, ajdar niqobini kiyib, muayyan marosimlarini o'tkazishi nihoyatda keng tarqalgan odatlardan biri. Zero, ajdar shomonlik maqomini belgilovchi qiyofa hamdir. Hozirgi Xitoy, Yaponiya, Koreya va boshqa Sharqiy Osiyo ibodatxonalarida saqlanib qolgan shomonlar odatiga ko'ra, shu kunlarda ham ajdar, ilon raqslari o'ynaladi.

Keyingi obraz esa dev bo'lib, u hayot va kishilar, voqea va hodisalar, fikr-o'ylar to'qnashuvida ma'lum o'rin egallaydi. Lirikada shoir fikr va kechinmalarini bayon etishda devdan an'anaviy obraz sifatida foydalansa, epik asarlarida syujet va kompazisiyada, voqealar rivojida foydalanadi.Makr hiyla, an'anaga muvofiq shaytonga, zulm va bedodlik devga xosdir.

„Alisher Navoiyning hayoti va faoliyatining Astrabod davri xiyla murakkab va shoir uchun ko'ngilsiz voqealarga to'la bir bosqichdir.Xorazm afsonalariga ko'ra, shomon devlardan iborat homiy ruhlarning qornini to'yg'azishi, buning uchun qurbonlik keltirilishi shart bo'lgan. Bir so'z bilan aytganda, ushbu formula, mohiyatan, qadimgi ajdodlarimiz e'tiqodidagi qurbonlik marosimini ifodalaydi.“<sup>1</sup>

V.Y.Proppning ta'kidlashicha, ajdarho va devlarning qiz o'g'irlashi qadimda arvohlarning jonni o'g'irlashi haqidagi tushunchalarni ifodalaydi: “O'lim shuning uchun ham yuz beradiki, marhumning jonini kimdir (aniqrog'i, marhumlar dunyosiga mansub kimdir) o'g'irlab ketadi”.Ammo devlarning qizlarni o'g'irlab, tutqunlikda saqlashini patriarxat tizimning matriarxat tamoyillar ustidan qozongan g'alaba timsoli sifatida tahlil etgan tadqiqotlar ham yo'q emas. Zero, erkaklar oila va urug' boshiga kelgach, avvaliga hukmron bo'lgan ayollarning ko'plab huquqlari, xususan, muhabbat borasidagi erkinliklari keskin chegaralandi. Bu holatga ko'nikish esa oson kechmagan. Shu sabab barzangi, qo'pol va aqlan zaifroq devlar timsolida,

aslida nikoh prinsiplariga qat'iy amal qilgan erkaklar tasvirlanadi. Asrlar davomida syujet va talqinlar o'zgarib ketgan bo'lsada, motiv va ifoda o'zgarmasdan qolavergan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, asarlarga har bir narsa bejizga kiritilmaydi. Har bir kiritilgan obrazning bajaradigan o'z vazifasi bor. Shuningdek, asarga kiritilgan mifik obrazlar ham vazifalarini bajarish uchun kiritilgan. Asarlardagi bu obrazlar insonlarning barcha yomon xislatlari nafs, qabohat shu kabilar bilan ya'ni o'z-o'zi bilan kurash desak ham bo'laveradi. Shu bilan Alisher Navoiyning barcha bosh qahramonlari aynan shunday yo'lidan chiqqan g'ovlarni yengib o'tgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Ulug'bek Hamdamov, Abdug'opir Qosimov“Jahon adaboyoti” o'quv qo'llanma.T.:«Barkamol fayz media» 2017, 352 bet.
- 2.Shuhrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova,Olimjon Davlatov. Navoiyshunoslik darslik. – T.:„Tamaddun“, 2019, 520 bet.
- 3.Elbek Jumanov, O'zbekiston milliy universiteti tayanch doktoranti „Jahon adabiyoti“jurnali, 2022-yil 1-son.